

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ ҲАҚИДА АҲДЭШТИРИЛГАН. АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Гонашвили А.С. К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ЕВРАЗИЙСКОГО НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА: ОПЫТ УНИВЕРСИТЕТА ПРИ МПА ЕврАзЭС.....	5
2. Sodiqova Shohida Marxaboevna ZAMONAVIY IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING UMUMBASHARIY TAMOYILLARI, SHAKLLARI VA SUBYEKTLARI.....	15
3. Farfiyev Baxramdjan Atxamdjanovich DIN SOTSIOLOGIYASI FANINING METODOLOGIK MASALALARI XUSUSIDAGI AYRIM MULOHAZALAR.....	25
4. Abduraxmonova Manzura MAKTABLARDA IJTIMOIY ISH FAOLIYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	34
5. Sodiqova Shohida Marxaboevna, Tagieva Gulsum Gafurovna “IJTIMOIY TA’MINOT” TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI.....	40
6. Kayumov Kaxramon O‘Z KASBIGA SADOQAT SOTSIAL FENOMEN SIFATIDA.....	46
7. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINING EVOLYUSION TENDENSIYALARI.....	52
8. Ахмедова Раъно ИНТЕРНЕТ КАК ПРОСТРАНСТВО МАССОВОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	59
9. Masharipov Baxtiyar SIFATIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA “SHAHAR” IJTIMOIY INFRATUZILMA MAKONINING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI TADQIQI.....	68
10. Рашидова Шахноза МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ.....	77
11. То‘рахо‘jaeva Ra’no DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	84
12. Zaretdinova Nesibeli QORAQALPOG’ISTONDAGI IJTIMOIY-DEMOGRAFIK HOLATNI O‘RGANISH DOLZARBLIGI.....	91


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

To‘raxo‘jaeva Ra‘no,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti
rano.dba@gmail.com

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15868383>

ANNOTATSIYA

Bugungi davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish maqsadida qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar ham amalga oshirilmoqda. Turli adabiyotlarda “Davlat fuqarolik xizmati ko‘pdan-ko‘p tarkibiy qismlar birligi bo‘lib, bu tashkiliy-huquqiy institutlar (tuzilmalar) tizimi va ishlab chiqarish-mehnat munosabatlarining kompleksi, davlat apparatida ishlashga tayyorlangan odamlar majmui hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning alohida tizimidir”, deb yuritiladi. Mazkur maqolada davlat fuqarolik xizmatining nazariy sotsiologik tahlili yoritilgan. Davlat fuqarolik xizmatini rivojlanish bosqichlari xususan, g‘arb va sharq sotsiolog olimlarining ilmiy nazariyalari keltirilgan. Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zi: davlat fuqarolik xizmati, boshqaruv kadrlari, Platon, Aristotel, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, “ijtimoiy jamiyat”, zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi.

Турахужаева Раъно,

Базовый докторант Академии Государственного Управления
при Президенте Республики Узбекистан
rano.dba@gmail.com

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ

АННОТАЦИЯ

В целях совершенствования современной государственной гражданской службы проводится ряд научных и практических исследований. В различной литературе отмечается, что «Государственная гражданская служба представляет собой многокомпонентную единицу, это систему организационно-правовых институтов (структур) и комплекса производственно-трудовых отношений, совокупность людей, подготовленных для работы в государственном аппарате, и отдельная система социально-правовых отношений». В данной статье описан теоретико-социологический анализ государственной гражданской службы. Представлены этапы развития государственной гражданской службы, в частности, научные теории западных и восточных социологов. Также анализируются реформы, реализуемые сегодня в государственной гражданской службе в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: государственная гражданская служба, управленческие кадры, Платон, Аристотель, Фараби, Беруни, Ибн Сина, Ибн Рушд, «социальное общество», современная социология управления.

Turakhujaeva Rano,

Basic doctoral (PhD) student at the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan

rano.dba@gmail.com

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE STATE CIVIL SERVICE

ABSTRACT

In order to improve the modern state civil service, a number of scientific and practical studies are being carried out. Various literature notes that “The state civil service is a multicomponent unit, it is a system of organizational and legal institutions (structures) and a complex of production and labor relations, a set of people trained to work in the state apparatus, and a separate system of social and legal relations”. This article describes a theoretical and sociological analysis of the state civil service. The stages of development of the state civil service are presented, in particular, the scientific theories of Western and Eastern sociologists. The reforms being implemented today in the state civil service in the Republic of Uzbekistan are also analyzed.

Key words: state civil service, managerial personnel, Plato, Aristotle, Farabi, Beruni, Ibn Sina, Ibn Rushd, “social society”, modern sociology of management.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatining mohiyatan yangi tizimi amal qilmoqda. So‘nggi 7 yilda mazkur tizimning tashkiliy-tarkibiy, mazmuniy jihatlari davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida mutanosib ravishda amal qila boshladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ-788-son “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida” gi Qonuni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi PF-5843-son “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [2] Farmoni shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi PQ-4472-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[3]gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.10.2022-yildagi 595-sonli “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori [4] ushbu faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ularda asosiy vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek, bugungi davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish maqsadida qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar ham amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada davlat fuqarolik xizmatini sotsiologik tahlili keltiriladi. Turli adabiyotlarda “Davlat fuqarolik xizmati ko‘pdan-ko‘p tarkibiy qismlar birligi bo‘lib, bu tashkiliy-huquqiy institutlar (tuzilmalar) tizimi va ishlab chiqarish-mehnat munosabatlarining kompleksi, davlat apparatida ishlashga tayyorlangan odamlar majmui hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning alohida tizimidir” deb yuritiladi.

METODOLOGIYA

Davlat fuqarolik xizmatini sotsiologik rivojlanish tarixini tahlil etishda sharq va g‘arb mutafakkirlarining ishlariga yuzlanadigan bo‘lsak, Antik dunyo olamining “oltin davri” namoyondasi bo‘lgan Platonning ezgulik asosiga qurilgan “ideal davlat fuqarolik xizmatini uch xil strata-ijtimoiy tabaqa-hukmdorlar, harbiylar va ishlab chiqarishda band bo‘lgan mehnatkashlar donishmand boshqaruvchi guruh rahbarligida garmonik tuzum tashkil etadi”, deb ta‘rif beradi. Shuningdek, Platon o‘zining “Fileb” deb nomlangan asarida xizmatchilarning faoliyati quyidagi talablarni bajarish asnosida ro‘y berishi aytiladi:

- 1) g'oya mohiyatini anglash;
- 2) g'oya talablarini hayotga tadbiiq qilishi;
- 3) tafakkur va bilimlarga ega bo'lish;
- 4) ilm va san'atning biror turini egallash, to'g'ri fikr qilish masalasiga ega bo'lish;
- 5) toza, halol hissiyot vositalaridan, masalan, musiqa tovushi, tasviriy san'atdan zavq-rohat ola bilish.

Darhaqiqat, davlat fuqarolik xizmatchisi davlat tomonidan tanlangan siyosatning asosiy g'oyasini, maqsad vaziflarini to'g'ri anglay bilishi eng muhim talablardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Ularning bilim tajribalari, olgan bilimlarini aholini rozi qilishga yo'naltirishlari, shu bilan birga xodimlar nafaqat tashkilot maqsad vaziyatlaridan kelib chiqqan holda yashashi, balki jamiyatdagi belgilangan tartiblarga rioya qilishi kerak. Hayotdan rozilik hissini his eta olishi haqida fikrlar keltirgan.

ASOSIY QISM

Antik dunyo sotsiologiyasi tarixining eng mazmundor davri bo'lmish grek sotsiologiya maktabining yorqin namoyondasi Aristotelning fikriga ko'ra, komil fuqaro tarbiyasi xar tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi. Demak, komillik tizimidagi «davlat – fukaro – inson» tartiboti Aristotelning davlat va jamiyatni mukammallashdan iborat sotsiologik konsepsiyasini tashkil etadi. Aristotel “davlat va jamiyatning ideal maqsadlari mushtarak, umumiy bo'lganligi sababli ham mazmuniy asosi bir xil bo'lgan tarbiyaviy tizim ishga tushmog'i zarur”, deb hisoblaydi.

Aristotel Davlat boshqaruvida ishtirok etishga ishtiyoqmand va amaldorlik da'vosida bo'lganlar quyidagi sifatarga: «Mavjud davlat tuzumini chin dildan cevmog'i, katta kuch va energiyaga ega bo'lmog'i, odamlarga hayrixoh va adolatli bo'lmog'i lozimligini ta'kidlaydi. Davlat fuqarolik xizmatchisini asosiy faoliyat mezoni, deb odamlar manfaatini davlat manfaatlari bilan uyg'un holda hal etish malakasiga ega bo'lmog'i lozim» [5, – B.246], deb hisoblagan.

Aristotelning sotsiologik qarashlari nafaqat Rim sotsiologiya maktabi balki o'rta asr Sharq buyuk mutaffakirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushdlar dunyoqarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Xususan, Sharq sotsiologiya maktabida yorqin iz qoldirgan ulug' mutafakkirlardan biri Abu Zayd Abdurahmon Ibn Xaldun hisoblanadi. Ibn Xaldun «Muqaddima» asarida tarix fani va ijtimoiy rivojlanishning asosiy mohiyati va masalalarini belgilashga intildi. «Muqaddima» asarida asosiy mavzuni «ijtimoiylikka» bag'ishlaydi va bu masalada Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushdlarning fikrlarini rivojlantiradi.

Ibn Xaldun «ijtimoiylikning» davlat bilan uzviy aloqada ekanligini ta'kidlaydi. Davlatni «ijtimoiyliksiz» tasavvur qilib bo'lmaganidek, «ijtimoiylikni» ham davlatsiz tasavvur etish mumkin emas, ya'ni uning ta'kidlashicha, davlat va mulk «ijtimoiylik» uchun monand (zarur) bo'lganidek, har qanday «shakl ham material uchun monanddir» [6, – B.46]. Ma'lumki, har bir ijtimoiylik asosini to'g'ri yo'lga qo'yilgan ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Xususan, ushbu munosabatlarni jamiyat a'zolari, ijtimoiy institutlar tashkil etadi. Ushbu ijtimoiy institutlarni to'g'ri tashkil etilishi, jamiyat farovonligini ta'minlaydi. Ushbu yondashuvni bugungi kundagi mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosati misolida ham kuzatishimiz mumkin. Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda “kuchli davlat” qurishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilgan va bugungi kunda o'z mustaqilligini saqlab qolgan, o'z armiyasiga ega, O'rta Osiyo mamlakatlari orasidagi kuchli mamlakatga aylandik.

Endilikda mamlakatimizda “ijtimoiy davlat” qurilishi jadal suratlarda amalga oshirilmoqda. Buning amaliy natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2019-yildagi PF-5633-son “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi [7] farmoni tasdiqlandi.

Shuningdek, aholiga yanada yaqin bo'lish har bir fuqaroning muammolarini birma bir o'rganib ularni yechish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.03.2021-yildagi 152-son «Mahallabay» ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabusslarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi [8] Qarori qabul qilindi. Har bir mahallada ehtiyojmand aholini ro'yxatga kiritish, moddiy yordam, uy joy uchun subsidiya va

kreditlar ajratish kabi turli masalalar, tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o'zida jamoaviy hal qilinmoqda. Ushbu olib borilayotgan "ijtimoiy davlat" siyosati aholi orasida davlat boshqaruvi, davlat va davlat fuqarolik xizmatiga bo'lgan ishonchni oshirmoqda.

Movarounnahrda davlatni va jamiyatni sotsiologik o'rganish ulug' mutafakkir Al-Forobiyning [9, – B.58] asarlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, "haqiqiy davlat"ning asosini uch narsa tashkil etadi, bular – fozil jamiyat, adolatli boshqaruv tizimi va adolatli rahbardir. Mana shu uch asoslarning uyg'unligi, mamlakat oldiga qo'yilgan maqsad vazifalarni bajarilishini ta'minlaydi.

Forobiy har qanday jamiyat boshqaruv tizimiga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Forobiy mamlakat boshqaruviga aloqador bo'lgan rahbarning shaxsiy fazilatlariga alohida e'tibor qaratish haqida so'z yuritgan. Chunki, har qanday jamiyat va hokimiyat – rahbariyat qonunlarga bo'ysunadi, ulardan hosil bo'ladi va ularga asoslanadi [10, – B.100]. Shu tufayli, u quyidagi talablarni ishlab chiqqan:

- ❖ o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishi uchun har tomonlama sog'lom bo'lishi;
- ❖ tabiatdan nozik farosatli bo'lishi, suhbatdaoshning so'zlarini tez ilg'ab olishi;
- ❖ yaxshi xotiraga ega bo'lishi, anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarini xotirasida to'la to'kis saqlab qolishi va barcha tafsilotlarni unutmasligi;
- ❖ zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning alomatlarini sezgan zahoti, u nimadan darak berayotganligini anglashi;
- ❖ o'z fikrlarini chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi;
- ❖ ta'lim olishga, bilim va ma'rifatga intilishi, bilimga chanqoq bo'lishi;
- ❖ ko'ngilxushlikka berilmasligi;
- ❖ haqiqatni, odil va haqgo'y insonlarni ardoqlaydigan, yolg'on va yolg'onchilardan nafratlanishi;
- ❖ o'z qadrini biluvchi va nomusli oriyatli odamli bo'lishi, ulug' va oliy ishlarga intilishi;
- ❖ mol dunyo ortidan quvmasligi;
- ❖ tabiatdan vatanparvar, hammaga bir xilda adolatli bo'lishi; barchani adolatga chaqiruvchi, adolatsizlik, jabr zulm, musibat va zolimlarni yomon ko'ruvchi bo'lishi, tadbirni bajarishda qatiyat ko'rsatishi, juratli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur.

Darhaqiqat, Forobiyning sotsiologik kuzatuvlari tahlili bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Yuqoridagi rahbar shaxsiga qo'yilgan talablar boshqaruv jarayonini yanada takomillashtirdi. Ushbu nazariyaning amaliy natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O'RBQ-788-son "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" gi Qonunining [11] 42-moddasida belgilab berilganidek, endilikda, davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishdan maqsad uning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallashi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasi darajasi uning bilimlari, ko'nikmalari va malakalari darajasini aniqlash imkonini beruvchi axborot tizimlari orqali davlat organi tomonidan muntazam ravishda baholab borilishi zarur. Qayta tayyorlash, malaka oshirish va mustaqil ta'lim olish davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirib borish hamda ko'nikmalar va malakalarni egallashi maqsadida tashkil etilgan ta'lim jarayonini tashkil etilishi. Forobiy tomonidan keltirilgan rahbar shaxsni, bilim va kompetensiyalarini rivojlantirilishga qaratilgan sotsiologik nazariyaning amaliy natijasini ko'rsatib beradi.

Davlat fuqarolik xizmatini sotsiologik tahlil etar ekanmiz, G'arb sotsiologiyasining mashhur namoyondasi Veberning "byurokratik model"i nazariyasi alohida e'tiborga loyiqdir. G'arb jamiyatining XVIII asrdan keyingi modernizatsiya va sanoatlashtirish jarayonida yaratilgan yirik nazariya "neo-veberizm", deb ham ataladi. Ushbu modelning asosiy g'oyasi xizmat vaziflarini aniq belgilanishi, buyruq, topshiriq va sanksiyalarni rasmiylashtirilishi, kasbiy kompetensiyalarga asoslangan holda darajalarga ajratilishi, ierarxiyaga asoslangan tizimda yuqori turuvchi rahbariyat faoliyati umumiy qoidalar asosida baholanishi nazarda tutiladi [12, – B.8].

Bugungi kundagi zamonaviy davlat fuqarolik xizmatida neoveberizmning ba'zi elementlarini uchratish mumkin. Masalan, bugungi kunda mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmati

lavozimlarining guruhlari va toifalaridan kelib chiqqan holda davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining quyidagi malaka darajalari beriladi [13]:

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlari	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining toifalari	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining malaka darajalari
Siyosiy	Rahbar kadrlar	Oliy darajali maslahatchi 1-darajali maslahatchi 2-darajali maslahatchi 3-darajali maslahatchi
Boshqaruv	Boshqaruv kadrlari	1-darajali xizmatchi 2-darajali xizmatchi 3-darajali xizmatchi
Yordamchi	Mutaxassislar	4-darajali xizmatchi 5-darajali xizmatchi 6-darajali xizmatchi

Shuningdek, sotsiologiyaning rivojlanish bosqichida Veber “byurokратиyani xokimiyat va boshqaruvni o‘zi ichiga olgan davlat tomonidan berilgan vazifalarni so‘zsiz bajaruvchi ijro apparati sifatida ta’riflagan. M.Veber o‘zining boshqa asarlarida davlat xizmatini hozirgi jamiyatda boshqaruvning murakkab vazifalarini hal qilish uchun mo‘ljallangan eng oqilona institutsional tuzilma bo‘lib, uning oqilonalik negizi mazkur tuzilma faoliyatini shaxssizlantirishdan iborat bo‘lib, bu, o‘z navbatida muayyan ijrochilar o‘zboshimchaligidan saqlanishni kafolatlaydi, deb ta’riflaydi [14, – B.28-32].

Shuningdek, davlat xizmati yo‘nalishida bixevioristik yondashuv alohida o‘rin egallaydi. O‘tgan asrning 20-yillarida ushbu yo‘nalish boshqa yo‘nalishlarga ham kirib kela boshladi.

Bixevioristik yondashuvning asoschisi Djon B.Uotson sanalsada, bixevioralistik yondashuvni davlat xizmatiga qo‘llagan olim Xerbert A.Saymon hisoblanadi. U davlat boshqaruvi holati davlat boshqaruvi tarkibidagi har bir shaxs qanday qaror qabul qilishiga qarab paydo bo‘ladi, deb ta’kidlagan [15, – B.8-12].

Davlat boshqaruvi hamda davlat xizmatida bixevioristik yondashuv tanlanganligining sababi, u shaxsiy xulq-atvorni izohi, prognozlar bilan bog‘liq bo‘lib, davlat boshqaruvi va davlat xizmati jarayonlarini tushuntirish har bir shaxsning xulq-atvorini tushunish, deb ta’kidlanadi. Bixevioristik yondashuvni 3 turga ajratish mumkin bo‘lib, birinchidan bixevioristik yondashuv davlat boshqaruvida davlat xizmatchilarining xulq-atvorini davlat boshqaruvi tadqiqotlarining markazi, deb qayd etilgan.

Agarda avvallari davlat boshqaruvida, asosan, huquqiy va institutsional yondashuvlarda qonunlar, tizim va tuzilmalar hamda shaxslarga ta’sir ko‘rsatishga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, bixevioristik yondashuvda shaxs, belgilagan tuzilma yoki tizim ostida qaror qabul qilish mexanizimini aniqlashga e’tibor qaratiladi.

Ikkinchidan, bixevioristik yondashuv fanlararo tadqiqotlar olib borishga ixtisoslashgan. Bu nafaqat tadqiqot usullari, balki har bir akademik sohadagi intellektual yutuqlar davlat boshqaruvi bo‘yicha tadqiqotlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, psixologik tadqiqotlar davlat xizmatchilarining o‘z ishidan qoniqishi yoki ish jarayonidagi xatti-harakatlarini izohlashda muhim intellektual poydevor bo‘la oladi. Sotsiologik tadqiqotlari esa davlat boshqaruvi tarkibi ichidagi maxsus guruhlarining xatti-harakatlarini tushunishda katta yordam beradi.

Uchinchidan, bixevioristik yondashuvda mantiqiy pozitivizmga urg‘u beriladigan turli elementlar to‘g‘ridan to‘g‘ri davlat boshqaruvi sohasida qo‘llanilishi kerakligi qayd etilgan.

Yuqorida keltirilgan yondashuvning asosiy g‘oyasi bu davlat boshqaruvidagi jarayonlardagi asosiy element inson xatti-harakatining takroriyiligiga urg‘u berib, empirik ravishda ifodalay olgani uchun bixevioristik yondashuv hozirgi kunga qadar ham katta ta’sir kuchiga ega yondashuv turidir [16, – B.20-22].

O'tgan asrning 20-yillariga kelib "ijtimoiy jamiyat" konsepsiyasi vujudga keldi. Ijtimoiy jamiyatining asosiy funksiyasi xizmatchilar uchun xavfsizlikni ta'minlab, tartib intizom va ijtimoiy himoyaga alohida e'tibor bera boshlagan.

Sotsiolog va psixolog E.Meyoning "Xotorn ekperimenti" deb nomlangan tadqiqoti, boshqaruv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan yangi amaliy natijalarni olib kelgan. E.Meyoning fikriga ko'ra, boshqaruv faoliyati shaxs to'g'risidagi intuiativ tasavvurlarga emas, balki fan va tadqiqotlarga asoslangan bo'lishi zarur [17, – B.46-48]. Meyoning fikriga ko'ra, boshqaruv jarayonini, xususan davlat boshqaruvini samaradorligini oshirishga nafaqat xizmatchilar, balki mamlakat tomonidan davlat xizmat uchun yaratib beriladigan sharoitlar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mehnat sharoitini yaxshilash bo'yicha, shuningdek, Amerikalik sotsiolog F.Landberg tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar "Mehnat sotsiologiyasi" ni rivojiga, shuningdek, bugungi kundagi haftasiga 40 soatlik ish haftasi, mehnat ta'tillarini tashkil etishga sababchi bo'lgan [18, – B.10-14].

Davlat xizmatini o'rganish bo'yicha mamlakatimiz sotsiolog olimlari tomonidan ham qator ilmiy izlanishlar olib borilgan, xususan, sotsiologiya fanlari doktori, professor M.Bekmurodovning "Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi" kitobida keltirilganidek, davlat o'z vazifalarini hokimiyatni kuchaytirish hisobiga emas, aksincha demokratik omillarni kengaytirish va keng xalq ommasini boshqaruv jaroyonlariga keng jalb etish yo'li bilan amalga oshirmog'i zarur. Ma'lumki, fuqarolarning tafakkuri, siyosiy saviyasi demokratik o'zgarishlar sur'atlari bilan mos bo'lsa, boshqaruvni demokratiyalashga zamin yaratiladi.

Shuning uchun ham, demokratik o'zgarishlar hamda yangi demokratik jarayonni chuqurlashtirish va ularni hayotga tadbiiq etishni eng avvalo, jamiyatimizning o'zi anglamog'i va hal qilmog'i darkor. Bu borada jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan mahallalarning o'rni va o'zini o'zi boshqarish tartibini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi [19, – V.130-132].

Sotsiolog olim A.J.Xolbekov davlat xizmatini davlat organlari vakolalarining ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshiriladigan kasbiy faoliyat turi, tifatida ta'riflaydi [20, – B.34-35].

Shuningdek, Sh.M.Sodiqovanning [21] davlat xizmatini tashkil etishda "Raqaamli sotsiologiya" metodlarini takomillashtirilishi to'g'risidagi nazariyasi, bugungi kunda yuzaga kelayotgan muammolarni axborot texnologiyalari orqali aniqlash, tahlil qilish va ularga maqbul yechim topishda katta ahamiyat kasb etadi. Zero, bugungi kunda ko'plab murojaatchilar asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z murojaatlarini yo'llashi ommalashib bormoqda.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, davlat xizmati xususan, davlat fuqarolik xizmati bir necha asrlardan beri sotsiologik tadqiqotlar uchun o'z dolzabrligini yo'qotmay kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan nazariyalarni tahlil qilar ekanmiz, davlat xizmatini quyidagicha ta'riflashimiz mumkin, "davlat xizmati bu to'g'ri tanlangan xizmatchilardan tashkil topgan, mamlakat rivojlanishi bo'yicha ishlab chiqilgan maqsad va vazifalarni bajaruvchi hamda fuqarolar roziligini ta'minlashga qaratilgan tizim".

Davlat fuqarolik xizmati – bu davlat boshqaruvining bir bo'lagi bo'lib, davlat xizmati tomonidan belgilangan maqsad va vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy faoliyatdir. Unga sotsiologik jihatdan e'tibor qaratadigan bo'lsak, davlat fuqarolik xizmati davlat boshqaruv organlarida faoliyat yurituvchi xodimlar jamoasiga ham ishlatilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan nazariyalarga asoslanadigan bo'lsak, bugungi kunda ham antik davr sotsiologlarining fikrlari va tadqiqotlari o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Albatta, xattoki davlat fuqarolik xizmatini tashkil qilish va rivojlantirishda ham G'arb va Sharq modellarini ajratish va yagona o'zbek modelini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasning 2022-yil 8-avgustdagi O'RQ-788-son "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" gi Qonuni <https://lex.uz/docs/6145972>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 3-oktabrdagi PF- 5843-son “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/4549998?ONDATE=12.02.2021>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi PQ-4472- sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat hizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/4552053>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Qarori (14 oktabr 2022-yil №595).
5. Аристотель. Сочинения: В 4 т. Т. 4. – М.: Мысль, 1983. – С. 376-644.
6. Ибн Халдун. Мукаддима. – Тошкент: Фан, 1990. – 128 б.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2019-yildagi PF-5633-son “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni <https://lex.uz/docs/4166958>
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.03.2021-yildagi 152-son «Mahallabay» ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabusslarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori <https://lex.uz/docs/5353246>
9. Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2018. – B.58.
10. Xayrullaev M. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – Toshkent: A.Qodiriy, 1993. – B. 100.
11. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ-788-son “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida” gi Qonuni <https://lex.uz/docs/6145972>
12. Neoweberyzm, red. S. Mazur, Варшава, 2016.
13. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ-788-son “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida” gi Qonuni <https://lex.uz/docs/6145972>
14. Neoweberyzm, red. S. Mazur, Варшава, 2016.
15. Simon H.A.(1997). Administrative Behavior (4th ed.) New York, NY^ The Free press.
16. Neoweberyzm, red. S. Mazur, Варшава, 2016.
17. Бурганова Л., Савкина Е. Элтон Мэйо: теоретик и практик управления. Монография. – Москва: Инфра-М. 2013. – С. 111.
18. Ландберг Ф. Богачи и сверхбогачи. О подлинных правителях Соединённых Штатов Америки. – М.: Прогресс, 1971. – 684 с.
19. Бекмуродов М.Б., Замонавий бошқарув социологияси. – Тошкент: «Yoshlar nashriyot uyi». 2020. – 436 б.
20. Холбеков А.Ж. Бошқарув сotsiologiyasi. – Toshkent: Akademiya, 2007. – B.34-35.
21. Садыкова Шахида Мархабаевна. Актуальные вопросы социальной защиты пожилых людей в Узбекистане // НАУ. 2015. №4-6 (9). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-voprosy-sotsialnoy-zaschity-pozhilyh-lyudey-v-uzbekistane> (дата обращения: 18.04.2024).

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 7, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000